

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Jild 3, Son 12/2

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 12/2 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳақимов Назар Ҳақимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

Тахририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Axmedov Oybek Saparbaevich</i> ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАНИНГ ЎРНИ.....	10-18
<i>Нематова Мафтуна</i> ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН	19-24
<i>Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna</i> MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKTIK TAHLILI.....	25-32
<i>Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi</i> "SMILE" VA "TABASSUM" TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	33-38
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i> BADIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI	39-43
<i>Jumanova Shahnoza Ikromjonovna</i> IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O'RNI	44-50
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i> ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	51-57
<i>Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna</i> XALQ NASRI JANRLARINING O'ZARO MUNOSABATLARI	58-62
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i> FRANSUZ KOMPARATIV FRAZELOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI	63-68
<i>Кенжабоев Шокир Абдулхалимович</i> ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА	69-74
<i>Fayziyev Bahodir Baxshullayevich</i> J. K. ROULINGNING "GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH" ASARIDAGI TO'QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O'ZBEK TILLARIGA TARJIMASI	75-79
<i>Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi</i> OLAMNING O'ZBEK LISONIY TASVIRIDA "FIDOIYLIK" KATEGORIYASI	80-84
<i>Тухтаева Фарида Исматуллаевна</i> ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК	85-90
<i>Radjabova Dildora Raximovna</i> PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI	91-96
<i>Mansurova Shohista Ismailovna</i> BADIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI	97-102
<i>Ermatov Ixtiyor</i> SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI.....	103-108

<i>Axmedjanova Farida Djavairovna</i> GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING	109-114
<i>Saitov Suxrob Djumaydillayevich</i> ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN TRAGEDIES IN THE STORY	115-119
<i>Тўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи</i> ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕҲР	120-124
<i>Toshpo'latova Xusniya Matayusub qizi, Normamatov Farrux Komiljon o'g'li</i> INGLIZ REKLAMA SHIORLARI TARJIMASI JARAYONIDA SHAKL VA MA'NO MUVOFIQLIGI	125-129
<i>Абдуманнонов Хожиақбар Акмалжон угли</i> ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на примере учебных пособий и словарей узбекского языка).....	130-136
<i>Абдуллаева Раъно Хикматовна</i> РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА	137-144
<i>Hamidova Sayyora Nurmatovna</i> TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR.....	145-151
<i>Rustamova Dilrabohon</i> ATAMALAR LUG'ATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI	152-157
<i>Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna</i> EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND ARTISTIC LITERATURE	158-162
<i>Farmonov Nurbek Pulatovich</i> WEB OF SCIENCE MA'LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH	163-169
<i>Xojjiyeva Oynisa Shabonovna</i> ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI	170-176
<i>Norqobilov Sanjar Rahmat ugli</i> COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES	177-182
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i> ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI	183-190
<i>Ho'jamqulov Anvar Jozilovich</i> OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI.....	191-196
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Кутыбаева Елизавета Дуйсенбаевна, Аманязова Света Байниязовна</i> ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	197-203
<i>Мирзаабдуллаева Матлуба Рустамовна</i> СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕЪМОЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР	204-209
<i>Toshkanov Nurbek Bahriddinovich</i> BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI	210-216

Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI217-223

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna
OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI224-228

Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o'g'li
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI
TATBIQ ETISH METODIKASI229-233

Pirimova Nargiza Adilovna
SPORT-TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING
O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH234-239

Tangirqulov Elmurod Aliyarovich
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK
TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI VA "YASHIL MAKON" MODULLARI240-244

Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI
TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI245-258

Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM
TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR
TUSHUNCHASI259-265

Valieva Xolida
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLIGI266-271

Djumayeva Dildora Isroilovna
BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING
PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI272-277

Davlatova Nilufar Vosiljonovna
TA'LIM-ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING
O'RNI VA MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARI278-285

Mamaraimova Zebo Shafotovna
YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK
TAMOYILLARI286-290

Turayev Yolqin Sherzod o'g'li
KATTA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILY ASOSLASH KO'NIKMASINI
SHAKLLANTIRISH YO'LLARI291-295

Abdurasulova Shoira Kushakovna
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI
INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH296-305

Sottarov Abduvali Umirqulovich
UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QITISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI
SIFATIDA306-310

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i> VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI	311-315
<i>Xushvaqtov Umar Norqobilovich</i> AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI	316-320
<i>Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	321-326
<i>No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi</i> BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	327-331
<i>Xalikov Faroxidin</i> TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGİYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI	332-339
<i>Abduvaxidov Xusan Abdukulovich</i> OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH	340-345
<i>Якубова Нафиса Одилжановна</i> ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	346-354
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH	355-360
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i> TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	361-371
<i>Kasimov Oйбек Омилевич</i> СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОЙДАЛАР ВА "FAIR PLAY" НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ...	372-378
<i>Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich</i> MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOIYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY-METODOLOGIK JIHATLARI	379-386
<i>Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ.....	387-394
<i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i> TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI	395-400
<i>Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna</i> МАКТАВГАЧА YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	401-406

<i>Khidirova Malakhat Qazakhovna</i> ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES	407-413
<i>Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi, Xolbo'tayeva Moxinur Temurboy qizi</i> MENEJMENT SOHASINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	414-420
<i>Achilov Nuriddin Abdugafforovich</i> AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTINING ILMIY TADQIQI	421-426
<i>Norinov Muxammadyunus Usibjonovich</i> JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI	427-432
<i>Begimqulov Zarif Axmadovich</i> JISMONIY TARBIYA YO'RIQCHISINING IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI	433-438
<i>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI	439-443
<i>Jumayev Sirojiddin Zafarovich</i> MOLEKULAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH	444-449
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	450-457
<i>Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH	458-463

10.00.00-Филология фанлари

Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi

Termiz davlat pedagogika instituti
Xorijiy tillar nazariyasi va metodikasi kafedrasida o'qituvchisi
n.jorayeva461@gmail.com

“SMILE” VA “TABASSUM” TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Annotatsiya. Maqolada “konsept” tushunchasiga to'xtalib o'tilgan bo'lib, turli xil tadqiqotchilar tomonidan ta'riflar keltirilgan. Shuningdek, tabbasum/smile tushunchalarini ifodalovchi sinonimik qator o'rganib chiqilgan bo'lib, etimologik hamda lingvistik tahlil o'tkazilgan.

Kalit so'zlar: konsept, smile, smirk, tabassum, jilmaymoq, kulmoq.

Jurayeva Nilufar Sobirjon qizi

Termez State Pedagogical Institute
Faculty of Foreign Language and Literature
Teacher of the Department of Theory and
Methodology of Foreign Languages

LINGUISTIC EXPRESSION OF THE CONCEPTS "SMILE" AND "TABASSUM" (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES)

Abstract. The article focuses on the concept and provides definitions by various researchers. Also, the synonymy series expressing the concepts of tabassum/smile were studied, and etymological and linguistic analysis was carried out.

Key words: concept, smile, smirk, smile, (tabassum) smile, laugh.

Жураева Нилуфар Собиржон кизи

Термезский государственный
педагогический институт
Преподаватель кафедры теории
и методики иностранных языков

**ЯЗЫКОВОЕ ВЫРАЖЕНИЕ КОНЦЕПТОВ «УЛЫБКА» И «ТАБАССУМ»
(НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)**

Аннотация: В статье рассмотрено понятие концепт и приведены его определения различными исследователями. Также был изучен синонимический ряд, репрезентирующий концепты tabassum/smile, и проведен этимологический и лингвистический анализ.

Ключевые слова: понятие, улыбка, ухмылка, (tabassum) улыбка, улыбаться, смеяться.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N04>

Kirish. XX-asrning ikkinchi yarmidan boshlab jahon tilshunosligida alohida soha sifatida shakllangan lingvomadaniyatshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlar yangi bosqichga ko'tarildi. Bu jarayonda turli strukturaviy tillardagi kognitiv tadqiqotlar va konseptual sohalarning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash zamonaviy tilshunoslikning ajralmas qismiga aylandi. Bu jarayonda kognitiv munosabatlar lingvomadaniyatshunoslikning jadal rivojlanishiga olib keldi va qiyosiy tilshunoslikning shakllanishiga yangi, kuchli turtki berdi. Shu asosda konsept nafaqat lingvistik, balki milliy madaniy kodning muhim birligi sifatida leksikografiya, lingvopsixologiya, sotsiolingvistika sohalarda til va nutq qonuniyatlarini tizimli yondashish asosida amaliyotda tushunish imkonini beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, "konsept" (lotincha *konseptus* — *tushuncha mazmuni*) tushuncha sifatida semantikasi mantiqiy modellashtirish tarafdorlari tomonidan talqin qilinadi. Bunda konseptga "voqelik obyektlari va hodisalarini ularning xossalari va munosabatlarini belgilash orqali umumlashtirilgan shaklda o'z ichiga olgan tafakkur tushuniladi [2; C-35].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. "Konsept" atamasi kognitiv tilshunoslikning asosiy tushunchalaridan biri sifatida 20-asrning 50-yillari o'rtalaridan to hozirgi kungacha lingvistik tadqiqotlarda asosiy rol o'ynadi. Rus lingvistik adabiyotida "konsept" atamasining eng faol qo'llanilishi 90-yillarning boshidan boshlab, kognitiv tilshunoslikning yangi, dolzarb yo'nalishi sifatida rivojlanishi bilan kuzatilgan. Xususan o'zbek tilshunosligida yaqin yillarda tadqiqot predmetiga aylana boshladi.

Jumladan, S.G. Vorkachev [3], Z.D. Popova[6] va I.A. Sternin[5], Yu.S. Stepanov,[7] kabi tadqiqotchilarning asarlari konsept tushunchasining lingvistik va madaniy o'ziga xosligini aniqlashga bag'ishlangan.

S.G.Vorkachevning fikriga ko'ra konsept– "madaniy jihatdan belgilangan og'zaki ma'no" tekisligi ifodalangan leksik-semantik paradigmani tashkil etuvchi til ilovalaridir [3;C-36-37] .

Z.D.Popova va I.A.Sterninlar ta'kidlashicha, konsept – murakkab aqliy birlik bo'lib, u o'ziga xos xususiyatlari va qatlamlari asosida turli nuqtai nazardan ko'rib chiqiladigan obyektidir [6; C-37].

Yu.S. Stepanov esa, konseptni konseptual tilshunoslik vakili sifatida, madaniyatning qalin qatlami sifatida inson ongiga kirish shakli deb ta'kidlaydi. [7; C-158] .

O'zbek tilshunosligida ham konsept tadqiqi borasida ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Xususan, G.A. Abduraxmanova [1], F.I. Nurmanov [4] va H. Xasanovalarning [9] tadqiqot ishlari o'zbek va O'rta Osiyo turkiy tillarining dunyo lingvistik manzarasidagi milliy madaniyat parchalarini o'rganishga bag'ishlangan. Biroq "smile/tabassum" konseptining o'zbek tilidagi dunyo lingvistik manzarasida ifodalanish xususiyatlari hozirgacha qiyosiy jihatdan har tomonlama tadqiqot predmeti bo'lib kelgan emas.

Muhokama. Lingvokulturologik tahlilda "tabassum/smile" tushunchalarini etimologik tahlil usullari hamda qiyosiy-tarixiy metodlardan foydalangan holda evolyutsion rivojlanish dinamikasini ko'rib chiqish o'rinli bo'ladi. Bunday yondashuv o'rganilayotgan tushunchalar verballashuvining turli vositalar va usullarni tarixiy taraqqiyoti yuzasidan ko'rib chiqish imkonini beradi. Har qanday tushunchaning o'ziga xos rivojlanish tarixi, biografiyasi bor, shu sababli turli davrlardagi leksik darajadagi o'zgarishlarni hisobga olmasdan inson ongida shakllanishini tushunish qiyin.

Har bir madaniyatning ajralmas qismi bo'lgan til millatning mentaliteti va dunyoqarashini aks ettiradi. Tabassum tushunchasi, uni baholash va milliy ongda ushbu hodisaga munosabatni tilni o'rganish orqali aniq ishonch hosil qilish mumkin.

“Smile” konseptini lingvokulturologik tahlilini o'tkazish uchun avvalambor ushbu konseptni ifodalovchi sinonimlar qatorini ko'rib chiqishimiz zarur. Sinonimik qator degan semantik jihatdan bir biriga yaqin bo'lgan so'z birikmalari tushuniladi. Shu sababli ingliz tilidagi “smile” konseptiga semantik jihatdan mos keladigan sinonimlari: *grin, smirk, mock and e.t.c.*

Keling “smile” tushunchasining xususiyatlarini aniqlash uchun ingliz tilining etimologik lug'atlariga murojaat qilaylik. Etimologik lug'atlardagi ma'lumotlarga ko'ra “smile” leksemasi “yuzga zavqlanish, istehzo yoki masxara kabi ko'rinish berish” kabi ma'nolarini anglatib, O'rta ingliz tili davridagi “smilen” hamda Qadimgi davr nemis tili “smilan” va O'rta nemis tili davridagi “smilenter/smilen” so'zlaridan kelib chiqqan deb hisoblanadi [11].

Keyingi sinonimlar qatorida turgan “grin” tushunchasini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu leksema 1000 yillar oldin Qadimgi ingliz tilida paydo bo'lgan bo'lib, og'riq yoki g'azab paytida tishlarni ko'rsatib kulish ma'nosini anglatadi: *Wipe/take the grin off your face, to crack a grin, to give a grin, a silly grin, a sly grin, a cheeky grin, an impish grin* kabi misollarni keltirish mumkin [12].

Etimologik lug'atlarga ko'ra, eng qadimiy “smile” tushunchalaridan biri “smirk” hisoblanadi. Eng qadimgi *smercian, smerian va smearcian* kabi so'z shakllari IX asrda paydo bo'lgan bo'lib, kibrli kulish degan ma'noni anglatadi. *An arrogant smirk, a self-satisfying smirk, a smirk of triumph, smile and smirk* kabi misollarni keltirish mumkin [13].

Keyingi sinonimik qatorlarda turuvchi “mock” leksemaga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu so'z masxara yoki nafrat bilan kulish ma'nosini anglatib XVI asrga borib taqaladi. *Mock – to mock bitterly, to mock gently, to mock softly, to mock at somebody, to mock somebody for his/her failure* [14] kabi misollarni keltirish mumkin.

O'zbek tilshunosligida “tabassum” tushunchasini ifodalovchi sinonim qatorlarni sanab o'tadigan bo'lsak, bular: *kulmoq, tirjaymoq, jilmaymoq, ishshaymoq* va hokazolar.

O'zbek tilining izohli lug'atida “tabassum”- tushunchasiga (jilmayish, iljayish) yuz, ko'z va lablar bilan kulumsirash holati, shunday holat ifodasi; jilmayish kabi ta'rif berilgan bo'lib [8], misol tariqasida: “Hayotning yuziga shirin tabassum yugurdi” (M. Ismoiliy “Farg'ona tong otguncha”) ta'kidlab o'tilgan. Tabassum – bu arabcha so'z tabassum(un)shakliga ega; “jilmaydi” ma'nosini anglatuvchi “basama” fe'lidan hosil qilingan bo'lib, “jilmayish ma'nosini anglatadi [5].

Navbatdagi sinonimik qatorda turuvchi “kulmoq” so'ziga to'xtaladigan bo'lsak, yuz, ko'z harakatlari yoki turlicha tovush bilan xursandchiligini, zavq-shavqini ifodalamoq, kulgi ifodalamoq ma'noni anglatadi. Misol qilib, *xoxolab kulmoq, qahqaha urib kulmoq, piq etib kulmoq, xiringlab kulmoq* kabi so'z birliklarini keltirish mumkin.

O'zbek tilining izohli lug'atiga murojaat qiladigan bo'lsak, “tabassum” tushunchasini ifodalovchi sinonimik birliklar qatorida turuvchi navbatdagi so'zlardan biri “tirjaymoq” ovoz chiqarmay, ko'z lab-lunj harakati bilan kulgini ifodalamoq, miyig'ida kulmoq ma'nolarini anglatadi: *Fazliddin tirjayib egri-bugri tishlarining oqini ko'rsatdi* (Oybek “Tanlangan asarlar”).

Tabassum tushunchasini ifodalovchi sinonimik qatorda turuvchi leksemalardan biri “jilmaymoq” ga to'xtaladigan bo'lsak, kulimsiramoq, tabassum qilmoq ma'nolarini anglatadi: *Qiz Umidga qarab jilmaydi. Mirmuhsin, Umid, O'tegen Shomurodning uddaburonligiga qoyil qolib jilmaydi* (J.Tashenov “Jangchi O'tegen”).

Natija. Umuman olganda tushunchalar(konsept)ma'lum darajada idiomalar,ularning hodisalari va ma'nolari bilan bog'liq. Frazologizmlar tilshunoslar orasida doimo katta qiziqish bilan o'rganib kelingan. Chunki ular eng muhim til birliklari bo'lib, ular nutqda "tayyor" birliklar holda takrorlanadi. Konsept(tushuncha)larni ifodalovchi ma'lum bir vakillaridan farqli o'laroq, ular inson ongida o'ziga xos o'ringa ega. Biroq, nutq faoliyati jarayonida so'zlashuvchi tomonidan yaratilgan frazeologik birliklarni o'xshash nutq birliklaridan ajratish juda qiyin. Shu sababli, ingliz va o'zbek tillaridagi tabassum/smile tushunchalarini ifodalovchi leksemalar hamda frazeologik birliklarning lingvistik tahlilini o'tkazish juda muhim vazifalardan biridir.

Ingliz tilida *smile* leksemasi yordamida yasalgan **IJOBIY MA'NO** anglatuvchi so'z birliklari bilan tanishamiz.

Chiroyli,samimiy ma'nolarini ifodalovchi tabassum — *A bright smile(yorqin tabassum), a broad smile(keng tabassum), a cheerful smile(quvnoq tabassum), a dimpled smile(chuqur tabassum), a gentle smile(mayin tabassum), a happy smile(baxtli tabassum), a sincere smile(samimiy tabassum), a sunny smile(quyoshli tabassum), a warm smile(iliq tabassum) va hokazo.*

Ma'qullash / mehribon / muloyim / yumshoq kabi ma'nolarni anglatuvchi tabassum - *An amiable smile (taskin beruvchi tabassum), an encouraging smile (dalda beruvchi tabassum), an indulgent smile (xushmuomala tabassum) va boshqalar.*

Sirli tabassum- *An enigmatic smile (sirli tabassum).*

Maftunkor tabassum- *A beatific smile (ajoyib tabassum), a charming smile (maftunkor tabassum), a sweet smile (shirin tabassum), a winning smile (g'olib tabassum) va h.k.z.*

Ko'zni qamashtiruvchi tabassum- *A dazzling smile (ko'zni qamashtiruvchi smile), a radiant smile (yorqin tabassum).*

Endilikda esa **SALBIY MA'NO** anglatuvchi *smile* leksemasi qatnashgan so'z birliklarini ko'rib chiqamiz.

Yolg'on,soxta,niqoblangan yoki ijtimoiy tabassum- *An affected smile(ta'sirlangan tabassum), an artificial smile(sun'iy tabassum), a crocodile smile(yolg'on tabassum), a fake smile(soxta tabassum), a fixed smile(sobit tabassum), forced smile(majburan tabassum), a mocking smile(istehzoli tabassum), a phoney smile(soxta tabassum), a ready smile(tayyor tabassum), a sharp smile(keskin tabassum), a tight-lipped smile(qattiq tabassum).*

G'amgin tabassum - *A ghastly smile (dahshatli tabassum), a grim smile (qo'rqinchli tabassum), a humourless smile (hazilsiz tabassum), a joyless smile (quvonchsiz tabassum), a mirthless smile (quvnoq tabassum), a rueful smile (qayg'uli tabassum), a sad smile (g'amgin tabassum) va hokazo.*

Sarkastik/istehzoli tabassum- *A sardonic smile (sarkastik tabassum), a wry smile (achchiq tabassum) va boshqalar .*

Fitnali tabassum- *A conspiratorial smile (fitnali tabassum) .*

Uyatchan tabassum – *shy smile (uyatchan tabassum).*

Mag'rur tabassum - *A supercilious smile (takabbur tabassum).*

Jozibali, ammo xavfli tabassum- *A beguiling smile (o'ziga moyil qiladigan tabassum).*

Zaif/ozgina seziladigan tabassum- *A faint smile (behush kulgu), a thin smile (nozik tabassum), a wan smile(mayin tabassum), a weak smile(zaif tabassum) va hokazo .*

Tadqiqotimizning keyingi bosqichi *tabassum/smile* tushunchalarini paremiologik birliklar darajasida ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. "Tabassum/smile" tushunchalarini

ifodalovchi leksemalarni paremiya va aforizmlarda kelish xususiyatlariga murojaat qiladigan bo'lsak, undan avval ushbu tushunchalarni semantik jihatdan tahlil qilishga to'g'ri keladi. Avvalombor, paremiologik birliklarni tahlil qilish o'rganilayotgan tushunchalarni verballashuv jarayonini va kontekstdagi vazifasi haqidagi qarashlarni kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

L.V. Polubichenko ta'kidlaganidek, "lug'atlarda to'plangan iqtiboslarni o'rganish ma'lum bir vaqtda tegishli milliy hamjamiyat haqida tasavvurga ega bo'lishga imkon beradi" [5; C-63].

Tadqiqot davomida bir nechta "smile" leksemasi dominant bo'lgan ingliz va o'zbek tillaridagi maqollar tanlab olindi. Bular :

- *A smile opens many doors* – ingliz tilida
- *Tabassum toshni eritar.* – o'zbek tilida

Bundan ko'rinib turibdiki, tabassum aloqaning ajralmas qismi va u inson qobiliyatlarining doirasini kengaytiradi. Misol uchun: "*A smile opens many doors*" ga qaraydigan bo'lsak, "*tabassum ko'p eshiklarni ochadi*" deb tarjima qilinib, "smile" leksemasi gapda ot vazifasida kelishi kuzatilgan. Ikkinchi o'zbek tilidagi maqolga yuzlanadigan bo'lsak, bunda ham "tabbasum " leksemasi gapda ot vazisini bajargan. Bundan tashqari "*smile opens*", "*tabassum ochadi*" hamda "*tabassum eritar*" kabi jumalalarda metafora usulida ma'no ko'chish yuz bergan.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, *tabassum/smile* tushunchalarini verballashuv jarayoni uzoq o'tmishga borib taqaladi, o'zida millat va til egalari madaniyatini aks ettiradi. Tuyg'ularni og'zaki ifodalanishining barcha sanab o'tilgan usullariga qaramay, biz his-tuyg'ularning har qanday lingvistik ifodasi nisbiy ekanligini va uni to'liq yetkazmasligini tan olamiz, shuning uchun ko'pincha og'zaki bo'lmagan signallar orqali suhbatdoshning niyatini ham, u boshdan kechirayotgan hissiy tuyg'ularini ham tanib olish mumkin.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Абдурахманова А. К. Способы номинации лиц как отражение языковой картины мира в узбекском и русском языках: Автореф. дисс... канд. филол. наук. — Ташкент, 2007. — 24 с.
2. Бунева Е. С. Концептологическая модель признака старшинства// Языковая личность: культурные концепты: Сб.научных трудов ВГПУ, ПМПУ. – Волгоград: Перемена, 1996. с.236.
3. Воркачев С. Г. Концепт как «зонтиковый термин» // Язык, сознание, коммуникация. Вып. 24. — М., 2003 — С. 5–12.
4. Нурманов Ф. И. Миф – важный компонент языковой картины мира. // Журнал «Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук» 2015 № 5-1 с.276-278.
5. Полубиченко Л. Словарь цитат как зеркало и инструмент культуры // Новое в теории и практике лексикографии: синхронный и диахронный подходы. Материалы VIII межд. школы-семинара. — Иваново, 2009.с.63.
6. Попова З. Д., Стернин И. А. Очерки по когнитивной лингвистике / З.Д. Попова, И. А. Стернин. – Воронеж: «Истоки», 2001. – 191 с.
7. Степанов, Ю.С. Константы. Словарь русской культуры. Опыт исследования / Ю.С. Степанов. М.: Школа «Языки русской культуры», 1997. — 824 с.

8. “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” Ўзбекистон миллий энциклопедияси “Давлат илмий нашриёти” Тошкент 625-б.
9. Хасанова Г.Х. Национальная культурная картина мира. // Журнал «Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук» 2015 № 5-1 с.299-301.
10. Шавкат Раҳматуллаев “Ўзбек тилининг етимологик луғати” 2-жилд Тошкент-Университет 2003 400-бВоркачев С. Г. Концепт как «зонтиковый термин» // Язык, сознание, коммуникация. Вып. 24. — М., 2003 — С. 5–12.
11. Online etymology dictionary [smile | Search Online Etymology Dictionary \(etymonline.com\)](http://smile.etymonline.com)
12. Online etymology dictionary [grin | Search Online Etymology Dictionary \(etymonline.com\)](http://grin.etymonline.com)
13. Online etymology dictionary [smirk | Search Online Etymology Dictionary \(etymonline.com\)](http://smirk.etymonline.com)
14. 14. Online etymology dictionary [mock | Search Online Etymology Dictionary \(etymonline.com\)](http://mock.etymonline.com)

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 12/2 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).